INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS
ISSN: 3030-332X Impact factor: 9,493 Volume 17, issue 1, Aprel 2026
https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR worldly knowledge
Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.
https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG
https://www.researchgate.net/profile/Worldly-Knowledge
https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-332X

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA PARLAMENT FAOLIYATI VA SIYOSIY QARORLAR QABUL QILISH JARAYONI (MARKAZIY OSIYO TAJRIBASI)

Qurolboyeva Maftuna Olimjon qizi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
Xalqaro munosabatlar yo‘nalishi 3-bosqich talabasi,
Email: maftunaqurolboyeva237@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0002-3443-2031

ANNOTATSIYA: Zamonaviy dunyo tartiboti shakllanayotgan davrda raqamli texnologiyalar barcha siyosiy jarayonlarga integratsiyalashmoqda. Xususan, parlament faoliyati va siyosiy qarorlar qabul qilishda zamonaviy texnologiyalarning o‘rni va roli shiddat bilan o‘sib borishi, ushbu jarayonlarning yangi davr bo‘sag‘asida ekanligidan dalolat beradi. Ya’ni axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining parlament ishiga joriy etilishi, elektron hujjat aylanishi, onlayn muhokamalar, ochiqlik va shaffoflikni oshirishga xizmat qiladi. Markaziy Osiyo davlatlarida ham parlament tizimini modernizatsiya qilish, raqamli infratuzilmani rivojlantirish va davlat organlari faoliyatini ochiqlashtirish bo‘yicha islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, kiberxavfsizlik, raqamli tengsizlik, texnik resurslar yetishmasligi va kadrlar salohiyati bilan bog‘liq ayrim muammolar saqlanib qolmoqda.

Kalit so‘zlar: raqamli transformatsiya, parlament faoliyati, siyosiy qarorlar, Markaziy Osiyo, elektron boshqaruv, shaffoflik, elektron hukumat, innovatsiyalar.

ABSTRACT: In the era of the formation of the modern world order, digital technologies are being integrated into all political processes. In particular, the rapid growth of the role and place of modern technologies in parliamentary activities and political decision-making indicates that these processes are on the threshold of a new era. That is, the introduction of information and communication technologies into parliamentary work, electronic document management, online discussions, serve to increase openness and transparency. Reforms are also being implemented in the countries of Central Asia to modernize the parliamentary system, develop digital infrastructure and make the activities of state bodies more transparent. At the same time, some problems related to cybersecurity, digital inequality, lack of technical resources and human resources remain.

Keywords: digital transformation, parliamentary activities, political decisions, Central Asia, e-governance, transparency, e-government, innovations.

АННОТАЦИЯ: В эпоху формирования современного миропорядка цифровые технологии интегрируются во все политические процессы. В частности, стремительный рост и роли современных технологий в парламентской деятельности и принятии политических решений свидетельствует о том, что эти процессы находятся на пороге новой эры. То есть внедрение информационно-коммуникационных технологий в парламентскую работу, электронный документооборот, онлайн-дискуссии способствуют повышению открытости и прозрачности. В странах Центральной Азии также проводятся реформы по модернизации парламентской системы, развитию цифровой инфраструктуры и повышению прозрачности деятельности государственных органов. В то же время сохраняются некоторые проблемы, связанные с кибербезопасностью, цифровым неравенством, нехваткой технических и кадровых ресурсов.

Ключевые слова: цифровая трансформация, парламентская деятельность, политические решения, Центральная Азия, электронное управление, прозрачность, электронное правительство, инновации.

KIRISH

XXI asrda dunyo miqyosida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi davlat va jamiyat hayotining barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari iqtisodiyot, ta'lim, sog'liqni saqlash, moliya tizimi bilan bir qatorda siyosiy boshqaruv institutlari faoliyatiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada an'anaviy boshqaruv mexanizmlarini zamonaviy raqamli vositalar asosida takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Parlament davlat hokimiyatining muhim institutlaridan biri sifatida qonun ijodkorligi, ijro hokimiyati ustidan nazorat hamda jamiyat manfaatlarini ifodalash vazifalarini bajaradi. Shu sababli, yangi raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali parlamentlarni modernizatsiya qilish tobora keng tarqalib bormoqda. Raqamli transformatsiya zamonaviy hayotning barcha jabhalariga, jumladan parlament faoliyatiga ham chuqur kirib borayotgani sababli muqarrar va muhim jarayon hisoblanadi [1]. Ayniqsa, elektron hujjat aylanishi, masofaviy yig'ilishlar, raqamli ovoz berish tizimlari va fuqarolar bilan onlayn muloqot mexanizmlari parlament ishining samaradorligini oshiruvchi muhim vositalarga aylanmoqda. So'nggi yillarda Markaziy Osiyo davlatlarida ham davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilish, elektron hukumatni rivojlantirish va parlament faoliyatini raqamlashtirish yo'nalishida muayyan islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va boshqa davlatlarda davlat xizmatlarini elektron shaklga o'tkazish, ochiq ma'lumotlar bazalarini kengaytirish hamda parlament bilan fuqarolar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar kuzatilmoqda. Biroq raqamli transformatsiya jarayoni bilan bir qatorda kiberxavfsizlik, texnik infratuzilma yetarli emasligi, raqamli savodxonlik darajasi va normativ-huquqiy bazani takomillashtirish kabi dolzarb masalalar ham mavjud. Mazkur omillar parlament faoliyatining to'liq raqamli modelga o'tishida muayyan to'siqlarni yuzaga keltiradi. Shu nuqtai nazardan, raqamli transformatsiya sharoitida parlament faoliyati va siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonining o'ziga xos jihatlarini o'rganish, Markaziy Osiyo mamlakatlari tajribasini tahlil qilish hamda istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlarini belgilash muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda raqamli transformatsiya sharoitida parlament faoliyati va siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonini o'rganishda kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning nazariy asosini xalqaro tashkilotlar hisobotlari, davlat boshqaruvi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar hamda rasmiy elektron hukumat manbalari tashkil etdi.

Tadqiqotda qiyosiy tahlil usuli asosiy metod sifatida qo'llanildi. Ushbu usul orqali Markaziy Osiyo davlatlari parlamentlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasi, elektron parlament tizimlari va raqamli boshqaruv mexanizmlari o'zaro solishtirildi. Shuningdek, institutsional tahlil orqali parlamentlarning tashkiliy tuzilmasi, qaror qabul qilish jarayonlari va raqamli texnologiyalar ta'siri o'rganildi. Bu jarayonda parlamentlarning ochiqligi, fuqarolar ishtiroki va qarorlar qabul qilish tezligi kabi ko'rsatkichlarga e'tibor qaratildi. Bundan tashqari, kontent-tahlil usuli yordamida parlamentlarning rasmiy veb-saytlari, ochiq ma'lumotlar portallari va elektron platformalaridagi ma'lumotlar tahlil qilindi. Bu yondashuv parlament faoliyatining amaliy raqamli mexanizmlarini aniqlash imkonini berdi. Tadqiqot davomida tizimli yondashuv asosida raqamli transformatsiyaning ijobiy jihatlari (samaradorlik,

shaffoflik, tezkorlik) bilan bir qatorda mavjud muammolar (kiberxavfsizlik, raqamli tengsizlik, infratuzilma yetishmasligi) ham tahlil qilindi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Raqamli transformatsiya sharoitida davlat boshqaruvi tizimlarining modernizatsiyalashuvi parlament faoliyati va siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonlariga bevosita ta'sir ko'rsatib, xizmat ko'rsatish sifati, tezkorligi va shaffofligini oshirmoqda. Parlamentlar qog'oz hujjatlardan to'liq elektron tizimlarga o'tmoqda. Masalan, Qirg'izistonda elektron axborot almashinuvi tizimlari joriy etilgan bo'lsa, O'zbekiston misolida so'nggi yillarda davlat xizmatlarini raqamlashtirish jarayoni keng ko'lamda amalga oshirildi. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida davlat boshqaruvini raqamli transformatsiya qilish, fuqarolar va biznes uchun qulay muhit yaratish hamda ortiqcha byurokratik to'siqlarni kamaytirish asosiy yo'nalishlardan biri sifatida belgilandi. Shu asosda 2026-yildan "Byurokratiyani bartaraf etish – 2030" dasturi ishga tushirilishi belgilangan bo'lib, uning asosiy yo'nalishlari: (a) davlat xizmatlaridan tez va qulay foydalanish orqali fuqarolarning hayot sifatini yaxshilash; (b) tadbirkorlikni rag'batlantirish, xorijiy investitsiyalar uchun jozibadorlikni oshirish; (v) raqamli va davlat boshqaruvi sohalarida mamlakatimizning ijobiy imijini shakllantirish; (g) ortiqcha tartib-taomillarni bartaraf etish va jarayonlarning shaffofligini oshirish orqali suiiste'molchilik xavfini kamaytirishdir [2]. Natijada deputatlar qonun loyihalarini masofaviy muhokama qilish, tahrirlash va elektron ovoz berish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Shuningdek, onlayn platformalar orqali fuqarolar qonun loyihalarini muhokama qilishda ishtirok etmoqda, bu esa parlament faoliyatining shaffofligini oshirmoqda. Ushbu zamonaviy yondashuv elektron demokratiya bo'yicha global tendensiyalarga mos keladi va davlat mansabdor shaxslarining raqamli muhitdagi ishtiroki kuchayishi orqali ularning hisobdorligini oshiradi [3]. Davlat boshqaruvida raqamli xizmatlar ko'lami sezilarli darajada kengaydi. So'nggi besh yil ichida mamlakatimizda elektron davlat xizmatlarining turlari 50 tadan 400 dan ortiqga yetdi. My.gov.uz orqali taqdim etilayotgan xizmatlar soni yiliga kamida 20-25 foizga oshib bormoqda. Masalan, 2022-yilda 11 million fuqaro elektron xizmatlardan foydalangan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 18 milliondan oshib ketdi. Mazkur ko'rsatkichlar raqamli xizmatlardan foydalanish darajasining o'sish tendensiyasini aks ettiradi. Eng muhim natijalardan biri – davlat idoralari faoliyatida elektron hujjat aylanishining joriy etilishi hisoblanadi. Bugungi kunda barcha vazirlik va idoralar axborot tizimlari integratsiya qilingan holda faoliyat yuritmoqda. Bu nafaqat ish yuritish samaradorligini oshirdi, balki qog'ozbozlik va byurokratik to'siqlarni kamaytirdi. Xususan, "my.gov.uz", "soliq.uz", "e-auksion.uz" kabi platformalar davlat va jamiyat o'rtasida yangi o'zaro aloqani shakllantirdi. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, raqamli xizmatlar ulushi 2020-yilda 35% bo'lgan bo'lsa, 2025-yilga kelib 70 % ga yetdi [4]. Markaziy Osiyo miqyosida Qozog'iston, O'zbekiston va Qirg'iziston tajribasi raqamli parlament va elektron boshqaruv tizimlari rivojlanishining turli darajada ekanligini ko'rsatadi. Qozog'istonda "e-Parliament" elementlari va raqamli qonunchilik platformalari keng qo'llanilayotgani hamda Qozog'iston elektron hukumat (e-government) rivojlanishi bo'yicha mintaqada yetakchi hisoblanadi (2020-yilda davlat xizmatlarining 83 foizi elektron shaklda bo'lgan). O'zbekistonda esa davlat xizmatlarini raqamlashtirish va fuqarolar bilan to'g'ridan-to'g'ri raqamli muloqot tizimlari ustuvor yo'nalish sifatida rivojlanmoqda hamda O'zbekiston "yagona mobil ilova" va elektron parlament tizimlarini kengaytirish, mahalliy kengashlar faoliyatini raqamlashtirish orqali mintaqaviy integratsiyani qo'llab-quvvatlamoqda. Parlament faoliyatida raqamli vositalardan foydalanish qonun ijodkorligi jarayonini sezilarli darajada tezlashtirgan. Qonun loyihalarini elektron shaklda muhokama qilish, deputatlar o'rtasida raqamli ovoz berish

tizimlaridan foydalanish hamda fuqarolarning onlayn fikr bildirish imkoniyatlari siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonining ochiqligini oshirgan. Bundan tashqari, natijalar raqamli transformatsiya jarayoni bir qator tizimli muammolar bilan ham bog‘liqligini ko‘rsatadi. Kiberxavfsizlik tahdidlari, raqamli infratuzilmaning notekis rivojlanishi, hududlar o‘rtasidagi raqamli tengsizlik hamda raqamli savodxonlik darajasining turlicha ekanligi parlament va davlat boshqaruvi tizimlarining to‘liq raqamlashtirilishiga to‘sqinlik qiluvchi omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Markaziy Osiyo tajribasi shuni ko‘rsatadiki, raqamli transformatsiya davlat xizmatlarini modernizatsiya qilish, parlament faoliyati samaradorligini oshirish va siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonini ma’lumotlarga asoslangan modelga o‘tkazishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Raqamli transformatsiya parlament faoliyatining tabiati va siyosiy qarorlar qabul qilish mexanizmlarini tubdan o‘zgartirayotgan asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. An’anaviy parlament modeli asosan jismoniy ishtirok, qog‘oz hujjatlar va uzoq davom etadigan muhokama jarayonlariga tayangan bo‘lsa, raqamli texnologiyalar ushbu jarayonlarni sezilarli darajada tezlashtirish va optimallashtirish imkonini bermoqda. Eng muhim o‘zgarishlardan biri qonunchilik jarayonining “real vaqt” rejimiga yaqinlashuvidir. Elektron platformalar orqali qonun loyihalarini tarqatish, tahrirlash va muhokama qilish jarayonlari qisqargan bo‘lib, bu qaror qabul qilish tezligiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Bir vaqtning o‘zida, parlament ichidagi axborot oqimining raqamli shaklga o‘tishi deputatlar o‘rtasidagi koordinatsiyani kuchaytirib, institutsional samaradorlikni oshirmoqda. Biroq raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi faqat texnik yoki tashkiliy o‘zgarish emas, balki siyosiy jarayonlarning ochiqligi va legitimligiga ham ta’sir qiluvchi omil hisoblanadi. Fuqarolarning onlayn platformalar orqali qonun loyihalariga fikr bildirish imkoniyati kengayishi parlament va jamiyat o‘rtasidagi masofani qisqartirmoqda. Bu esa vakillik demokratiyasidan ishtirok demokratiyasiga tomon qisman siljishni anglatadi. Shuningdek, raqamli transformatsiya yangi tengsizlik shakllarini ham yuzaga keltirmoqda. Raqamli savodxonlik darajasi past bo‘lgan guruhlar siyosiy jarayonlarda faol ishtirok eta olmasligi mumkin, bu esa “raqamli tafovut” muammosini kuchaytiradi. Bundan tashqari, internet infratuzilmasi notekis rivojlangan hududlarda fuqarolarning elektron platformalarga kirish imkoniyati cheklangan bo‘lib qolmoqda. Parlament tizimlarida raqamli vositalarning joriy etilishi institutsional madaniyatga ham ta’sir ko‘rsatadi. Qaror qabul qilish jarayonlarida ma’lumotlarga asoslangan yondashuv kuchayib, siyosiy muhokamalarda empirik tahlilning roli ortmoqda. Bu esa subyektiv qarorlar ulushini kamaytirib, nisbatan asoslangan va shaffof qarorlar qabul qilish imkonini yaratadi. Ayni vaqtda, raqamli tizimlarning kengayishi kiberxavfsizlik va ma’lumotlar himoyasi bilan bog‘liq yangi xavflarni ham yuzaga keltiradi. Parlament faoliyatiga oid ma’lumotlarning himoyasi, elektron ovoz berish tizimlarining ishonchliligi hamda platformalarning barqaror ishlashi davlat boshqaruvi uchun strategik ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, raqamli transformatsiya parlament faoliyatini yanada ochiq, tezkor va interaktiv tizimga aylantirayotgan bo‘lsa-da, u bilan birga institutsional moslashuv, raqamli tenglik va xavfsizlik kabi masalalarni ham birdek hal etishni talab etadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, raqamli transformatsiya zamonaviy davlat boshqaruvi tizimining ajralmas qismiga aylanib, parlament faoliyati va siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonlarini sezilarli darajada o‘zgartirmoqda. Elektron hujjat aylanishi, raqamli platformalar va onlayn muloqot tizimlari qonunchilik jarayonining tezkorligi va ochiqligini oshirmoqda, bundan tashqari fuqarolarning siyosiy jarayonlardagi ishtirokini kengaytirmoqda. Markaziy Osiyo davlatlari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, raqamli boshqaruv elementlarining joriy etilishi davlat

xizmatlarini modernizatsiya qilish, byurokratik to‘siqlarni kamaytirish va qaror qabul qilish sifatini yaxshilashga xizmat qilmoqda. O‘zbekiston misolida elektron davlat xizmatlarining kengayishi, platformalarning integratsiyalashuvi va raqamli infratuzilmaning rivojlanishi ushbu jarayonning aniq natijalarini ifodalaydi. Shunday qilib, raqamli transformatsiya parlament institutlarining samaradorligini oshiruvchi, siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonini optimallashtiruvchi hamda davlat va jamiyat o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlovchi muhim omil hisoblanadi.

Biroq, birinchidan, kiberxavfsizlik tahdidlari, raqamli tengsizlik va texnik resurslar yetishmasligi kabi muammolar hali to‘liq hal etilmagan bo‘lib, bu omillar parlament faoliyatining to‘liq raqamli modelga o‘tishiga to‘sqinlik qilmoqda. Ikkinchidan, Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida raqamli parlament tajribalarini almashish va umumiy standartlar yaratish mintaqaviy integratsiyani kuchaytirish hamda mavjud kamchiliklarni bartaraf etishning samarali yo‘li bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Raqamli transformatsiya sharoitida parlament faoliyati va siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonlarini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq: Birinchidan, parlament tizimlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonini izchil davom ettirish va yagona integratsiyalashgan elektron platformalarni rivojlantirish zarur. Bu qonunchilik jarayonining tezkorligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, kiberxavfsizlikni ta’minlash parlament faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida mustahkamlanishi lozim. Xususan, elektron ovoz berish tizimlari va ma’lumotlar bazalarining himoyasini kuchaytirish uchun zamonaviy xavfsizlik mexanizmlarini joriy etish talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Guide to digital transformation in parliaments, Inter-Parliamentary Union (IPU) and Association of Secretaries General of Parliaments (ASGP), 2023. — 47 p.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi., Davlat boshqaruvining raqamli transformatsiya qilish va samaradorligini oshirishga qaratilgan tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida, Toshkent, 2025-yil 28-noyabr, F-68-son., O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev. Url: https://lex.uz/docs/-7865748

3.Alimovna S.L., Use of Internet Platforms in the Activities of the Oliy Majlis: Current Status and Trends in Uzbekistan. Central Asian Journal of Social Science and History. 2026. – Vol. 7, No. 2. – P. 9-15.

4.Abdulov Damir. Davlat boshqaruvining raqamli transformatsiyasi. Toshkent davlat yuridik universiteti dotsent, Shayakubov Shomansur Shakabilovich dotsent, Url: https://yuz.uz/uz/news/davlat-boshqaruvining-raqamli-transformatsiyasi.